

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USLUBLAR VA PEDAGOGUK TEXNOLOGIYALAR

Shokirova Sevara

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta'limgizning tizimini isloq qilish va takomillashtirish ,yangi sifat bosqichiga ko'tarish ,unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ta'limgizning oshirishda siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

Kalit so'zlar; ta'limgiz, Ta'limgiz to'g'risidagi qonun,uzluk,ta'limgiz,uzviy ta'limgiz,axborot texnologiyalarini,intellektual salohiyat

Mustaqillik yillarda jamiyat hayotining barcha sohalarida ,ayniqsa ,intellectual salohiyatini rivojlantirish borasida nazariy-metodologik asoslarni yaratgan "Ta'limgiz to'g'risida "gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi jamiyat taraqqiyotidagi intellektual salohiyatini shakllantirishning ijtimoiy –siyosiy va huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda."¹Bugungi kunda fan texnika jadal taraqqiy etayotgan bir sharoitda har bir davlat o'zining istiqbol rejalarini belgilash ekan ,kelajakda ushbu rejalarini amalga oshiradigan yosh avlodni jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash ,uning iqtidorini yuksaltirishga ,ma'naviyatini boyitishga alohida e'tibor berishi davr talabidir" ¹

Har bir inson mamlakatning buyuk kelajagini yaratish deganda ,birinchi navbatda ,o'z kelajagi ,farzandlari ,el-yurti kelajagi nazarda tutiladi.Buyuk ajdodlari ,allomalari boy ma'daniy me'rosi bilan faxrlanib yashayotgan xalqimiz orasida bugungi kun Xorazmiylari ,Farg'oniyalari ,Beruniylari ,Ibn Sinolari yetishib chiqmog'i darkor.Buning uchun esa har bir katta yoshli fuqaro shu Vatan farzandlariga fidoyi ko'makchi bo'lmog'i lozim.

Ma'lumki ,uzluksizlik va uzviylik ta'limgizning ortiqcha takroriylikka chek qo'yib ,avvalo ,jamiyatning ma'naviy intellektual salohiyatini kengaytiradi,davlatning ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. "Pedaagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv jarayoniga kirib kelishi ,shuningdek axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbihy tayyorligi ,mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi" ²

¹ Islom Karimovning "Mustaqillik –barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam me'zonidir" risolasini o'rghanish bo'yicha o'quv qo'llanma.T.O'qituvchi 2013.bet-96

² Ishmuhammedov R,Abdiqodirov A,Psrdsyev A.Ta'limgizda innovatsion texnologiyalar.T.2008.bet-3

Uzluksiz ta'lim chuqur har taraflama asosli ta'lim –tarbiya berish ,mutaxassis kadrlar taayyorlashning turli shakl va usul ,vosita yo'nalishlarining mukammal uyg'unligidan iboratdir.Mazkur ta'lim sifatini turli komponentlar o'rtasidagi aloqadorlik ,muayyan usullar va uslublarning ta'lim jarayoniga oqilona tatbiq etilishini ta'minlaydi. Shu o'rinda zamonaviy va an'anaviy ta'lim texnologiyasining mazmuniga qisqacha e'tiborimizni qaratsak.An'anaviy ta'lim berish asosan ta'lim oluvchiga yondashish bo'yicha nazoratli nasihatgo'y ,egallab bo'lingan usul bo'yicha qayta tiklashi,ta'lim oluvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini bostiruvchi ,qat'iy tashkil etilgan bo'ysunishga asoslanadigan jarayondirr.

Ta'lim paradigmaini esa:ta'lim beruvchi –kitob-ta'lim oluvchibtashkil etadi. "Ta'lim oluvchi bevosita ta'lim beruvchi ta'siridagi bo'ysunuvchi obyekt.Bilim birdan bir maqsad etib belgilanadi va har bir xato jazolanadi.Bunda o'qituvchi tayyor bilimlarini og'zaki bayon qiladi.Oddiylikdan umumiylilikka induktiv mantiqqa ,mexanik eslab qolishga ,qayta tiklash (o'zgarishsiz qaytarish)bayoniga asoslanadi,namuna bo'yicha ta'lim beradi.Natijada ta'lim oluvchilarni sustkashligi,nutq faoliyatining bo'shashishi kuzatiladi".

3

Bilim shaxsiy muammolarni hal etish vositasi bo'lib ,ta'lim oluvchi xato qilishga haqqi bor,aynan xatolardan ma'lum to'g'ri xulosalar chiqaradi,ya'ni yangi ma'lumotlar o'rganadi.Umuman olganda ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab o'quvchining dasturiy bilim tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish ,ilmiy fikrlashga o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish ,kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish ,nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.Jahon pedagogic tajribasi ,zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quvchilarni fanlarga qiziqtirishga ,ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Mavzumizdan kelib chiqqan holda e'tiborimizni quyidagi rivoyatga qaratsaak:

"Kunlardan bir kun ko'l bo'yida qorni och qolgan bir kishi baliq tutib turgan donishmanda duch kelibdi va unga murojaat qilib; "men ochman ,menga yordam ber!". Donishmand quyidagicha javob beribdi "men senga baliq berishim mumkin ,tez to'yanan va yana biroz vaqt o'tgach ,xuddi shunday och qolasan va mendan yordam so'raysan.Men senga qarmoq berishim mumkin ,lekin u qachondir sinib qolishi mumkin ,unda sen menga yana muroajaat qilishingga to'g'ri keladi.yaxshisi men senga qarmoq yashashni o'rgataman bu uzoq va qiyin ,ammo senga mening yordamim kerak bo'lmaydi.O'z yo'lingni o'zing tanla..."

³ G'oyalar va innovatsion taraqqiyot .III ilmiy nazariy semenar materiallari.T 2014.bet-134

Yuqorida keltirilgan rivoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki ,yaxshi o'qituvchi talabaga "qarmoq yasashni" o'rgatishi va aqilli talaba buni o'rganishi lozim.Talaba yoki o'quvchi "qarmoq yasashni" qanchalik tez va mustahkam o'rgansa birovlar yordamiga muhtoj bo'lmaydi. Mana shunday vazifalarni amalga oshirishda yangi interfaol va noan'anaviy pedagogik texnologiyalar qo'l kelishini tadqiqotchilar tajribalar natijasida isbotlashmoqda.Shuning uchun ham hozirgi kunda pedagoglardan talab qilinadigan narsa axborot texnologiyalaridan foydalanishni yaxshi bilishi va interfaol usullarni qo'llay olishi talab etilmoqda.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zлari tomonidan baholashga qodir ,zarur qarorlar qabul qiluvchi ,mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.Shuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish usullari intefaol usullardan ,innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'rni beqiyosdir.Chunki davlatmiz siyosatida yuksak ma'nnaviyatga tayangan jamiyat va yuksak ma'rifiy insonni shakllantirish alohida o'rin tutadi.

Inson komillika intilsagina o'zini o'zi har xil noma'qul ishlardan tiya oladi.

Xulosa qilib aytganda,pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuqa va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga qondirib ularni fikrlashga ,o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islom Karimovning "Mustaqillik –barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam me'zonidir" risolasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma .T.o'qituvchi 2013.96 bet .

2.Ishmuhammedov R,Abdiqodirov A,Psrdsyev A.Ta'limda innovatsion texnologiyalar.T.2008.bet-3

3.G'oyalari va innovatsion taraqqiyot. III imiy nazariy semenar materiallari.T 2014. bet 134

4.Pedagogika tarixi .o'quv qo'llanma .Nishonova S, Hoshimov K .Toshkent 2005. 16 -18 betlar